

**IJTIMOIIY HIMOIYAGA MUHTOIJ BOLALAR BILAN
TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGNING PSIXOLOGIK
TAYYORLIGI VA O'Z-O'ZINI BOSHQARISHI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika va
psixologiya kafedrasi, dotsenti **Maxmudov Shokir Kamolovich***

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0002-8066-5434>

UDK: 159.9.072

Email: mahmudovshokir0@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlovchi pedagoglarning psixologik tayyorligi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyati ta'lim-tarbiya jarayonida nechog'lik muhim ekani ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot davomida pedagoglarning psixologik barqarorligi va reflektiv kompetensiyasi ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, psixologik tayyorgarlik, o'zini boshqarish, refleksiya, stress, pedagog, ta'lim-tarbiya.

АННОТАЦИЯ: В ДАННОЙ СТАТЬЕ НАУЧНО ОБОСНОВАНА ЗНАЧИМОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ И СПОСОБНОСТИ К САМОРЕГУЛЯЦИИ ПЕДАГОГОВ, РАБОТАЮЩИХ С ДЕТЬМИ, НУЖДАЮЩИМИСЯ В СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ, В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ. В ХОДЕ ИССЛЕДОВАНИЯ БЫЛА ИЗУЧЕНА СТЕПЕНЬ ВЛИЯНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: ДЕТИ НУЖДАЮЩИЕСЯ В СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА, САМОРЕГУЛЯЦИЯ, РЕФЛЕКСИЯ, СТРЕСС, ПЕДАГОГ, ОБУЧЕНИЕ И ВОСПИТАНИЕ.

ANNOTATION: *THIS ARTICLE SCIENTIFICALLY SUBSTANTIATES THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL PREPAREDNESS AND SELF-REGULATION SKILLS OF EDUCATORS WORKING WITH SOCIALLY VULNERABLE CHILDREN IN THE EDUCATIONAL AND UPBRINGING PROCESS. THE STUDY EXAMINED THE IMPACT OF TEACHERS' PSYCHOLOGICAL STABILITY AND REFLECTIVE COMPETENCE ON THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS.*

KEYWORDS: *SOCIALLY VULNERABLE CHILDREN; PSYCHOLOGICAL PREPAREDNESS; SELF-REGULATION; REFLECTION; STRESS; EDUCATOR; EDUCATION AND UPBRINGING.*

Kirish

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirishda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu toifadagi bolalar bilan ishlash pedagogdan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini ham talab etadi. Pedagogning emotsional barqarorligi, stressga bardoshliligi, reflektiv yondashuvi bola shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maqolaning asosiy maqsadi — ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlashda pedagogning psixologik tayyorligi va o'zini boshqarish qobiliyatining o'rnini va ahamiyatini ilmiy tahlil qilishdir.

Ta'lim-tarbiya tizimi alohida e'tibor talab qiladigan guruhlardan biri bu – ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalardir. Bunday bolalar turli og'ir ijtimoiy sharoitlar, oilaviy muammolar, iqtisodiy yetishmovchilik yoki yetimlik tufayli psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lib, ularning sog'lom rivojlanishi va jamiyatga integratsiyalashuvi ko'p jihatdan maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq.

Mazkur jarayonda pedagog shaxsiga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlovchi pedagog nafaqat

kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki yuqori psixologik tayyorgarlikka, mehr-muruvvatga, bag'rikenglikka va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday bolalar bilan ishlashda pedagogdan sabr-toqat, ruhiy barqarorlik, to'g'ri kommunikatsiya o'rnatish va individual yondashuv talab etiladi.

Ushbu mavzu ijtimoiy pedagogika, psixologiya hamda shaxsiy rivojlanish kesishmasida dolzarb bo'lib, ta'lim tizimida ishlovchi mutaxassislarning kasbiy faoliyatini yanada samarali tashkil etish, bolalar bilan sog'lom psixologik muhitda muloqot qilish va ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uslublar

Tadqiqot jarayonida **sotsiologik so'rovнома, psixologik diagnostika, kuzatuv va suhbat** va **taqqoslov tahlil** metodlaridan foydalanilib oddiy maktab o'qituvchilari va maxsus muassasa pedagoglari o'rtasida farqlar aniqlandi.

Munozara

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlovchi pedagoglar uchun psixologik barqarorlik va o'zini tuta bilish eng muhim omillardandir. Ular ko'pincha bolalarning hissiy og'irligi, oilaviy muammolari va psixologik ehtiyojlari bilan yuzma-yuz keladilar. Bunday holatlarda pedagogning o'z emotsiyalarini boshqara olishi, stressga bardosh bera olishi — ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, reflektiv kompetensiyalar — ya'ni o'z faoliyatini baholay olish, xatolardan saboq olish, doimiy o'z ustida ishlash — ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlashda pedagogning roli nafaqat o'quv jarayonini tashkil etish bilan cheklanadi, balki ularning psixologik holati, hissiy ehtiyojlari va ijtimoiy muhitga moslashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, bu sohada faoliyat yurituvchi pedagoglar

uchun psixologik tayyorgarlik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Psixologik tayyorgarlik — bu pedagogning turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish va stressli holatlarda muvozanatni saqlay olish qobiliyatidir. Bunday tayyorgarlik quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Bolalarning individual psixologik xususiyatlarini anglay olish;
- Hissiy barqarorlikni saqlay olish;
- Empatiya va ijobiy muloqot yuritish;
- Insoniylik, mehribonlik va bag'rikenglikka asoslangan

yondashuv.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ko'pincha o'z tengdoshlariga nisbatan ko'proq psixologik travma, e'tiborsizlik yoki ijtimoiy izolyatsiyaga uchragan bo'lishadi. Shunday sharoitda pedagog o'zining ichki ruhiy holatini boshqara olmasa, ularning ehtiyojlariga javob bera olmaydi. Shu bois, o'z-o'zini boshqarish — pedagogik faoliyatda muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) O'z his-tuyg'ularini anglash va nazorat qilish;
- b) Stressni boshqarish usullaridan foydalanish;
- c) Konfliktli vaziyatlarni ijobiy hal etish;
- d) Professional xatti-harakatni saqlab qolish.

Muhokama davomida ta'kidlash joizki, ayrim pedagoglar o'zlarining psixologik tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi tufayli ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlashda qiynalishadi. Bu esa ularning ish sifatiga, bolalarning rivojlanishiga va hatto o'zining ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bu yo'nalishda maxsus treninglar, psixologik ko'mak, tajriba almashishlar, hamkorlikda yechim topishga qaratilgan muhitlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Boshqa bir muhim muammo — bu ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga nisbatan jamiyatdagi stereotiplar va befarqlikdir. Bu holatlarni bartaraf etishda pedagoglar targ'ibotchi, ko'prik vazifasini bajarishi, ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur.

Xulosa

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlashda pedagogning psixologik tayyorligi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyati ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur yo'nalishda pedagoglarni maxsus psixologik treninglar orqali tayyorlash, emotsional intellektni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni joriy etish dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva R., Jo'rayevna M.X. "Ijtimoiy pedagogika." – T.: Fan, 2020.
2. Abdullaeva G.G. "Pedagogik psixologiya asoslari." – T.: TDPU nashriyoti, 2021.
3. Tursunov S.T. "Maxsus pedagogika va psixologiya." – T.: "Zarafshon", 2019.
4. Xolmatova M. "Bolalar psixologiyasi." – T.: O'zbekiston, 2020.
5. Махмудов, Ш. К. (2021). Профессионализм и формирование педагогических способности. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 45-50.
6. Kamolovich, Makhmudov Shokir. "Practical forms, methods and tools of spiritual and legal education technologies suitable for citizens in the process of socialization of students." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.7 (2022): 55-61.
7. Kamolovich, M. S., & Isakovich, O. R. F. (2023). Inklyuziv ta'limning shaxs shakillanishidagi ahamiyati. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 277-279.